

**XORAZM VILOYATIDA GILAMCHILIK SAN'ATINING RIVOJI****Sabirov G'ayrat Ruzimovich****Xorazm viloyati IIB TQX TQKB katta tezkor vakili****<https://doi.org/10.5281/zenodo.1419566>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik yillarda Xorazm viloyatida gilamchilik san'atining rivoji va unda ayollarning roli xususida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'z:** bezak san'ati, gilamchilik, naqshlar, ranglar, tuya juni.

**Аннотация:** В данной статье в Хорезмской области в годы независимости сведения о развитии искусства ковроткачества и роли женщины в нем.

**Ключевые слова:** декоративное искусство, ковроделие, узоры, цвета, верблюжья шерсть.

**Abstract:** In this article, in Khorezm region during the years of independence information about the development of the art of carpet weaving and the role of women in it.

**Key word:** decorative arts, carpet making, patterns, colors, camel wool.

Xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turlaridan biri sanalgan gilamchilik sanalib, u ko'p asrlik milliy an'ana va uzoq tarixga ega. Uning tarixiy ahamiyatini dunyo xalqlari muzeylerida saqlanuvchi gilamdo'zlik yodgorliklari, turli kolleksiyalar, badiiy fondlar, shuningdek tarixiy qo'lyozmalar ham isbotlab turadi. Barcha xalqlarda gilamdo'zlik san'ati qadim zamonlardan beri rivoj topganligini arxeologik topilmalar ham tasdiqlab turadi. Gilamdo'zlik san'ati yurtimizda qadimdan rivojlangan. Ushbu mакtab yurtimizda o'ziga xos yorqin va takrorlanmas ranglari, ko'rкam naqshlari, to'qish uslubi bilan ajralib turadi. Jahonning turli mamlakatlardagi qadimiy shaxristonlar, arxeologik yodgorliklardan zaminimizda yaratilgan gilamlarning namunalari topilgani, ko'plab davlatlarning yetakchi muzeylerida o'zbek gilamdo'zligining noyob namunalari saqlanayotgani milliy hunarmandchilikning ushbu turiga dunyo miqiyosida e'tibor va qiziqish katta ekanidan dalolatdir.

Xorazm, qadimgi tarixga ega bo'lgan va boy madaniy merosga ega bo'lgan viloyat, o'zining ko'p qirrali san'ati va hunarmandchiligi bilan mashhurdir. Ularning orasida Xorazm gilamchilik san'ati alohida o'ren egallaydi. Asrlar davomida o'ziga xos uslub va naqshlarni saqlab qolgan bu san'at, nafaqat Xorazmning boy tarixini aks ettiradi, balki butun O'zbekiston madaniyatining bir qismi sifatida qadrlanadi.

Gilamchilik soxasida ko'plab urf-odat va rasm-rusmlar bajarilgan. Bunday urf-odat va rasm-rusmlar odatda gilamchi ayollarning maishiy turmushi va oilaviy hayoti bilan bog'lik bo'lib, mahsulot tayyorlash jarayonining barcha bosqichlarida tartib bo'yicha bajarilgan. Hunarmandchilikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri - bu har bir sohani o'z xomiy - pirlariga ega bo'lganlidir. [1] Tadqiqotchi M.S.Andreev tomonidan turli risolalarda keltirilgan xomiy-pirlar kulti keyinchalik asta-sekin islomlashtirilganligini va ularni islom dinida muqaddaslashtirilgan avliyolar nomi bilan almashganligi izohlab o'tilgan.[2]

Xorazm gilamlari qadimgi davrlardan beri mavjud bo'lib, uning kelib chiqishi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan gilam qoldiqlari va tarixiy manbalar bu haqda guvohlik beradi. Xorazm gilamlari o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

- Xorazm gilamlaridagi naqshlar geometrik, o'simlik, hayvon va inson shakllarini o'z ichiga oladi. Ushbu naqshlar xalq ertaklari, afsonalari, diniy qarashlar va tabiatdan ilhomlangan.

- Xorazm gilamlari yorqin va rang-barang ranglar bilan bezatilgan. Tabiiy bo'yoqlar ishlatish an'anasi gilamlarga noyob ranglar va chuqurlik beradi.
- Xorazm gilamlari asosan tuyalar junidan to'qiladi. Tuyalar joni qalin va mustahkam bo'lganligi sababli, gilamlar uzoq yillar davomida bardoshli bo'ladi.
- Xorazm gilamlari asosan ayollar qo'l mehnati yordamida, uy sharoitida tayyorlangan.
- Gilam to'quvchilar qaychi, igna, bigiz, ip yoki ipak va turli matolarni ishlatib gilam mahsulotlarini to'qiganlar. [2]

So'nggi yillarda Xorazm gilamchilik san'ati yangi hayotga kirdi. Yoshlar bu san'atga qiziqish bildirib, an'anaviy usullarni o'rghanishmoqda. Zamonaviy dizaynlar va texnologiyalarni qo'llash bilan birga an'anaviy naqshlarni saqlab qolishga harakat qilinmoqda.

Xorazm gilamchilik san'ati O'zbekiston madaniyatining muhim qismi bo'lib, o'ziga xos tarix va an'analarni aks ettiradi. Bu san'atning davom ettirish va rivojlantirishga bo'lgan qiziqish, uning kelajagi yorqin ekanligini ko'rsatadi. Xorazm gilamlari nafaqat uy bezaklari sifatida, balki madaniy meros va milliy g'urur ramzi sifatida qadrlanadi.

### References:

1. Сухарева О.А. К вопросу о генезисе профессиональных культов у таджиков и узбеков// Памяти Михаила Степановича Андреева. Сборник статей по истории и филологии народов Средней Азии. Изд.АН.Тадж.ССР. 1960.С.195-207
2. Андреев М.С. По поводу процесса образования примитивных среднеазиатских древних цехов / Этнография. 1927, №2 . С. 324
3. Dala materiallari. Xorazm viloyati Xiva va Tuproqqal'a tumanlari. 2024.